

**YOSHLARNING BO'SH VAQTINI TASHKIL ETISHDA
MADANIYAT MARKAZLARINING O'RNI**

Inatullayev Baxromjon Boqijonovich

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'sh vaqt tushunchasi, yoshlarni bo'sh vaqtini tashkil etish mexanizmlari, xususan, madaniyat markazlari faoliyatida yoshlarni bo'sh vaqtini tashkil etish uslubiyoti atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, bo'sh vaqt, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, vaqt byudjeti, jamiyat, madaniyat markazlari

**РОЛЬ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В ОРГАНИЗАЦИИ
ДОСУГА МОЛОДЕЖИ**

Инатуллаев Бахромжон Бакиджонович

Доцент кафедры искусствоведения

Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье подробно раскрыто понятие свободного времени, механизмы организации свободного времени молодежи, в частности, методика организации свободного времени молодежи в деятельности культурных центров.

Ключевые слова: молодежь, свободное время, образование, духовность, духовно-просветительская деятельность, бюджет времени, общество, культурные центры.

**THE ROLE OF CULTURAL CENTERS IN ORGANIZING
YOUTH'S LEISURE TIME**

Inatullayev Bakhromjon Bakijonovich

Namangan State University Associate Professor of the

Department of Art Studies

Abstract. In this article, the concept of free time, the mechanisms of organizing free time of young people, in particular, the methodology of organizing free time of young people in the activities of cultural centers are detailed.

Key words: youth, free time, education, spirituality, spiritual and educational activities, time budget, society, cultural centers

Jamiyatda yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya ishlarining ahamiyati benihoyatda kattadir. Tarbiya va ta'lim bir biri bilan uzviy bog'langan. Biroq inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyatga ega hisoblanadi. Umuman tarbiya ta'lim berish jarayonining barcha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Har qanday ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashgandagina yetuk ma'naviyatga zamin bo'ladi. Yoshlar tarbiyasi bevosita ularning bo'sh vaqt bilan doimo bog'liq bo'lgan. Afsuski, sobiq sovet davrida ta'lim ishlariga e'tibor berilib, bo'sh vaqtdagi tarbiya shakllantirilmadi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning ma'naviy va madaniy yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beruvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishda bevosita davlat va jamoat muassasalari qatorida yangi tashkil qilingan madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu markazlarning asosiy faoliyati hususida yoshlарimizning o'zi ham hali to'liq xabardor emasligi ko'zga tashlanmoqda. Shu bois, madaniyat va aholi dam olish markazlarining faoliyati bevosita yoshlар bilan bog'liq ekanligi masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Bugun demokratik jamiyat qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, xalqning turmush madaniyatini yuksaltirish jarayoni amalga oshirilayotgan davrda yoshlarning bo'sh vaqt va madaniy dam olishini samarali tashkil etish va mazmunli o'tkazish, ularni ma'naviy va jismonan rivojlantirib, ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biridir. 2016 yil 6 sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonunning 27-moddasi tegishli bandida "Yoshlarning yashash joylarida bo'sh vaqlarini mazmunli o'tkazishini tashkil etish" lozimligi huquqiy asos sifatida belgilab berilgan[1]. Shuningdek, 2017 yil 5 iyuldaggi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlар ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida ham "yoshlarni, ayniqsa ular uyushmagan qismini bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga, ijodiy to'garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o'rgatish o'quv kurslariga keng jalb etish" deb qayd qilingan[2]. Zero o'qish va asosiy mehnat faoliyatidan tashqari vaqtda aniq rejalshtirilgan faoliyat turi bilan shug'ullanish, kundalik bo'sh vaqtdan biror amaliy natija chiqara olish kelajakdagi shaxsiy taraqqiyotni belgilaydi.

Bo'sh vaqt - dam olish, charchoq chiqarish, ma'nan va jismonan rivojlanish uchun sarflanadigan vaqt. Undan qanday foydalanish har kimning o'z ixtiyorida bo'ladi. Bo'sh vaqtda bilim va malaka oshirish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, sport va havaskorlik ijodiyoti bilan shug'ullanish, madaniy xordiq chiqarish, sayr qilish kabi ko'plab faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lish tushuniladi. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat olib borayotgan turli to'garaklar, folklor-etnografik va

xavaskorlik jamoalari yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish tadbirlarini tashkil qiladi.

Agar kishilarning kundalik (24 soat) umumiyligi vaqt byudjetini 4 qismga bo'lsak, uning bir qismini – ish vaqtini (7-8 soat), ikkinchi qismini – bo'sh vaqt (4-5 soat), uchinchi qismini – uyqu (7-8 soat) qolgani qismini boshqa zaruriy faoliyatlar – ishga borish uchun transportda, piyoda yurish va hokazolar (4-5 soat) tashkil qilar ekan. Bo'sh vaqt yilik vaqt byudjetining taxminan 17–19% ini tashkil qildi. Bo'sh vaqt miqdoriga ko'ra dam olish, haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari va yillik dam olishlarga bo'linadi.

Kundalik dam olish – bir kun davomida, ya'ni ish vaqtini tugagandan keyingi faoliyatni o'z ichiga oladi. Kundalik dam olish faoliyatlari ichidagi keng tarqalganlari toza havoda sayr qilish, radio va televidenie dasturlarini eshitish va tomosha qilish, kitob mutolaa qilish, badan tarbiya bilan shug'ullanish kabilarni kiritish mumkin[3].

Haftalik dam olish - shanba va yakshanba kunlari bajaradigan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu dam olish kunlari tavsiya etiladigan faoliyatlarga shahar chekkasidagi sayilgohlarga chiqib hordiq chiqarish, qarindosh – urug‘, yoru do'stlardan xabar olish, tomorqa ishlari bilan shug'ullanish nazarda tutiladi. Kundalik va haftalik dam olish mazmunli va maroqli o'tishida madaniyat va san'at muassasalarini va sport to'garaklari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni tarbiyalashda oila, maktab bilan bir qatorda madaniyat markazlari va boshqa san'at muassasalarining ahamiyati kattaligini yana shu omil bilan izohlash mumkinki, ularning o'rtacha 40 % unumli vaqtini maktabda o'tsa, 60 % maktabdan tashqari bo'sh vaqtga to'g'ri keladi. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini faol tashkil qilish orqali ham ularni ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand etish samarali natijalar beradi. Ya'ni yoshlarning ta'lidan tashqari bo'sh vaqtini maktab, madaniyat muassasalarida tashkil etiladigan "ma'naviy meros", "ma'naviyat va ma'rifat" tadbirlari, musiqa to'garaklari, xaykaltaroshlik, rassomchilik, badiiy kitobxonlik, aktyorlik mahorati, tikish va bichish to'garagi, fotostudiya to'garagi, sport to'garaklarida badiiy ijod bilan band bo'lmog'i lozim.

Hozirgi vaqtda ma'naviy, madaniy-ma'rifiy ishlarga e'tiborni kuchaytirish orqali "ommaviy madaniyat", terrorizm, diniy ekstremizmning zararli oqibatlariga qarshi kurash olib borish davr taqozosidir. Bunday zararli odatlarni yoshlar hayotidan chiqarib tashlash uchun madaniy dam olish tadbirlarini uyushtirib borishimiz lozim. Xususan, yoshlar bo'sh vaqtida hayotdan tabiiy, ya'ni tabiat go'zalliklaridan, xalq san'atidan, marosimlardan, qolaversa, o'z ijodiy ishi mahsullaridan bahramand bo'lsin, ruhiy ozuqa olishlari zarur. Madaniyat va aholi dam olish markazlari, sport inshootlari faoliyatini yanada yaxshilash va yosh avlodning kun sayin o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli tashkil etish maqsadida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarorini qabul qilinishi bo‘sh vaqt ni tashkil etishning yangi mexanizmlarini tashkil etish imkoniyatini yaratdi.[4]. Ma'lumki, madaniyat muassasalari davlat tomonidan belgilangan muayyan strategik vazifalarni ado etadi, bu tashkilotlar sifatida omma bilan ishlash, xalq badiiy-ijodkorlik iste'dodi, qo‘schiqchilik, raqs, aktyorlik, badiiy o‘qish kabi qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish, bo‘sh vaqt ni mazmundor o‘tkazish kabi ishlarni amalga oshiradi, xalqning yangicha ruh va g‘oyalar bilan sug‘orilgan ilg‘or an'analarini davom ettirishga da'vat qilinadi. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy tarbiyasidagi muammolar ma'naviy qashshoqlik, fikr torligi, hudbinlik, insofsizlik,adolatsizlik, imon-e'tiqodsizlik, nopoliklik, mehr – oqibatsizlik kabi illatlarni rad qilish insonlarni yuksak madaniyat va milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yo‘li bilan bartaraf etish, madaniy ma'rifiy muassasalarning ham bosh vazifasiga aylanishi kerak. Zero, “biz sog‘lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog‘lom bolani o‘zimizga tasavvur etamiz”[5].

Hozirda yoshlar tarbiyasida madaniyat markazlarida quyidagi talab va takliflar, tavsiyalar kiritib yanada izchil olib borsa, samarali natija beradi:

- Yoshlarni, ayniqsa uyushmagan yoshlarni har tomonlama shakllantirishda ularning bo‘sh vaqtlarini samarali va tizimli ravishda tashkil etish. O‘qituvchi va murabbiylar ijodkorligini ta'minlashda kasb mahoratlarini oshirishning samarali yo‘llarini izlash hamda yoshlarning bo‘sh vaqtlarida to‘g‘ri va aniq takliflarini bildirish;
- Yoshlarning dunyoqarashni kengaytirish va ma'naviyatini shakllantirish maqsadida qiziqarli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, kitobxon yoshlar o‘rtasida bellashuvlar muntazam ravishda uyuştirish;
- Ta‘lim-tarbiya ishlari shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish. Kutubxonalarda saqlanayotgan milliy yozma meros va hujjatlar haqidagi axborotlarni kengaytirish;
- Yangi ko‘rgazmalar texnologiyalarni qo‘llagan holda qiziqarli diltortar ko‘rgazmalar tashkil etish. Respublikamiz hududida hozirgi kungacha barpo etilgan madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatini keng o‘rganish;
- Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan folklor yoki xavaskorlik ansambllar bilan birga turli ko‘rik tanlovlarga qatnashish;
- Madaniyat markazlarining hududdagi maktablar, kollej va akademik litseylar, bolalar ijodiyoti uylar kabi ta‘lim maskanlari hamda kutubxona, muzey, teatr, kinoteatr kabi boshqa madaniyat va san‘at muassasalari bilan hamkorlik tizimini vujudga keltirish lozim;

•madaniyat markazlari barpo etishni targ‘ib etish maqsadida joylarda hududiy seminarlar vakengashlar, uchrashuvlar, qiziqarli tadbirlar tashkil etish. Bu ishlarni yoritishga ommaviy axborot vositalarini jalb etish;

•Barcha milliy uslubiyot markazlari tarafida madaniyat markazlari barpo etish ishlariga oid uslubiy va ommaviy qo‘mitalarni va tavsiyanomalarini yaratish.

Xullas, yoshlar dunyoqarashi va ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siriga tushib qolishni oldini olish lozim. Shu bois, jamiyatda fuqarolarni bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish imkoniyatini beruvchi madaniyat va aholi dam olish markazlarining asosiy maqsadi yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, yoshlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishdan iboratdir. Ayniqsa, yoshlar uchun qiziqarli bo‘lgan milliy o‘yinlar, folklor etnografik ansambllarni tashkil qilish bilan birga, doimiy ravishda jamiyatda va davlatimizda yuz berayotgan barcha voqealarni hodisalar, islohotlarning asosiy mazmunini kengroq tushuntirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 O‘zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida Qonuni. -Toshkent: Adolat, 2016

2. . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106 sonli Farmoni://www.lex.uz.

3 Islomov M.K. Bo‘sh vaqt va yoshlar ma’naviy madaniyatini rivojlantirish. Fal.fan. nomz ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya... -Toshkent., 1994. -B. 23.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori:// www.lex.uz.

5 Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omiliidir / O‘zbekiston adabiyoti va san'ati. 2013 yil 7 dekabr